INKLYUZIV TA’LIM

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirxalikov Bobur Zikrilloyevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi muammosiga oid rus va mamlakatimiz olimlarining nazariy g‘oyalari tahlil qilingan hamda uning dolzarbligi asoslab berilgan. Ijtimoiylashuv va individuallashuv tushunchalari izohlangan. Shuningdek, bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvi borasidagi pedagogik-psixologik g‘oyalar ilgari surilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuvning pedagogik aspektlari xususida so‘z yuritilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni va inklyuziv ta’limni amalga oshirish masalalari batafsil yoritilgan. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ijtimoyilashuvning ahamiyati ilmiy va nazariy tomondan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ijtimoiylashuv, individuallashuv, ijtimoiy-kommunikativ, shaxs qadriyatlari, subyektiv, obyektiv, ijtimoiy munosabat.*

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В статье обоснована теоретические взгляды отечественных и российских учёных на проблему социализации детей дошкольного возраста в условиях инклюзивного образования, а также обоснована её актуальность. Раскрыта сущность понятий “социализация” и “индивидуализация”. Наряду с этим выдвинуты психолого-педагогические идеи, касающиеся процессов социализации и индивидуализации детей. Рассмотрены педагогические аспекты социализации детей дошкольного возраста. Подробно освещены вопросы реализации инклюзивного образования и особенности процесса социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. Научно и теоретически обоснована значимость социализации при подготовке детей к школьному обучению.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, социально-коммуникативный, социализация, индивидуализация, ценности личности, субъективный, объективный, социальные отношения.*

CHARACTERISTICS OF SOCIALIZATION IN PRESCHOOL CHILDREN WITHIN INCLUSIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENTS

The article analyzes the theoretical views of national and Russian scholars on the problem of preschool children's socialization in inclusive education environments and substantiates its relevance. The essence of the concepts of “socialization” and “individualization” is revealed. Along with this, psychological and pedagogical ideas concerning the processes of children's socialization and individualization are put forward. Pedagogical aspects of preschool children's socialization are examined. The issues of implementing inclusive education and the specifics of the socialization process for children with special educational needs (SEN / disabilities) are covered in detail. The importance of socialization in preparing children for schooling is scientifically and theoretically substantiated.

Keywords: *inclusive education, socio-communicative, socialization, individualization, personal values, subjective, objective, social relations.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, jismonan va aqlan sog‘lom bo‘lib yetishishlari uchun ishlab chiqilayotgan qator dasturlarning mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari intellekutal salohiyatiga qarab belgilanadi. Ko‘p tarmoqli maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘quv-tarbiyaviy jarayonini zamonaviy yondashuvlarga tayanib tashkil etish, ularni ta’limning keyingi bosqichlariga samarali tayyorlash imkonini beradi.

Sh.Mirziyoyevning “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar ko‘rsatilgan, ya’ni alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit

va imkoniyatlar yaratilmagan; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar bilan to‘liq ta’minlanmagan; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas [1].

Jamiyatdagi turli vaziyat bolaning muloqotchanligini shakllantiradi, ehtiyojlarini qondiradi, uning o‘zini-o‘zi anglashi va tushinishini ta’minlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, bolaning o‘zini rivojlantirishi tashqi faoliyatdan tashqari shakllarda amalga oshiriladi. Ijtimoiy faoliyat bola shaxsini rivojlanishida ikkita o‘zaro qutb “ijtimoiylashuv”-“individuallashuv”dan iborat. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning vazifalari quyidagi sohalar hisoblanadi, ya’ni jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish; ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish; nutq, savod, o‘qish va chet tillarining o‘rgatilishiga tayyorlash; bilish jarayonini rivojlantirish; badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish. Keltirilgan barcha sohalar bolalarda muloqotchanlik, o‘zaro munosabat va ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Ijtimoiy-kommunikativ sohada bolalarda ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalari, oila va jamiyatda o‘zini tutish rivojlantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotlar va ilmiy manbalarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashuvi muammosi bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Biz tadqiqot ishi sifatida tanlagan inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi muammosi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Chunki bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdagi eng muhim talablardan biri ularda ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Agarda maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk bolalik davridan ijtimoiy-muloqotchanlik ko‘nikmalari shakllantirilsa, ularda kelgusida maktabda ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari oson kechadi. Ijtimoiylashuv tushunchasiga nazar tashlab ko‘rsak, bu umumilmiy termin bo‘lib, individning ijtimoiy muhit bilan bo‘lgan muloqot jarayonini anglatadi. Ya’ni individning jamiyat hayotiga kirib borishi, o‘zini anglashi va ijtimoiy rollarni bajarishidir. “Ijtimoiylashuv” va “tarbiya” so‘zlari mantiqan bir-biriga yaqin, biroq tarbiya avvalo maqsadga yo‘nalgan bo‘lib, tarbiya orqali individning xarakter va sifatlari shakllantiriladi.

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo‘naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o‘quvchi va talabalarga uzluksiz taqdim etish jarayonidir [4].

Ijtimoiylashuv jarayoni esa tarbiyalash va ta’lim berish nazarda tutilmagan holda o‘z-o‘zidan birdaniga ro‘y beradigan ijtimoiy ta’sir hisoblanadi. Individda vaqt o‘tishi bilan asta-sekin madaniy ko‘nikmalar paydo bo‘ladi, insonlar bilan muloqot qilish orqali shaxsga aylana boshlaydi. Ma’lumki, yosh avlodni rivojlanishi va har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi doimo jamiyatning eng muhim ijtimoiy talablaridan biri bo‘lib kelgan.

Psixolog olim L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqqqan. Bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bergan. Olim anomal bolaning nafaqat “salbiy” balki “ijobiy” tomonlarini ham o‘rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligини ta’kidlagan [7:12 b.]. Ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini bolalarni ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy usul va yondashuvlar asosida tashkil etish zarur. Chunki turli imkoniyatga ega bo‘lgan bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish orqali ularni sog‘lomlashtirish va ijtimoiylashuviga erishish mumkin.

Shaxs qadriyatlarini yo‘nalganligi va jamiyatga moyilligi, xulq-atvor motivatsiyalari shaxs ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxsda hayoti davomida asosan muloqotga ehtiyoj tug‘iladi.

Psixolog olim L.I.Bojovich ontogenezda shaxs shakllanishining bosqichlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarida shaxsning shakllanishi qandaydir bir tomonlama rivojlanishga bog‘liq emas, ya’ni aqliy, irodaviy-hissiy tomondan, balki shaxs bu eng oliy integratsion tizim bo‘lib, yaxlit holda har tomonlama rivojlanish jarayonidir. Ya’ni shaxsda “Men-tizimi”, “Men” tushunchasi paydo bo‘ladi bu esa ijtimoiylashuv jarayonini yuzaga keltiradi [3,41].

Olimning ta’kidlashicha, bolaning psixik rivojlanishi, uni shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiylashuv negizida kechadi. Bolalarda ijodiylik faoliyati ham ijtimoiylashuvga turtki beradi. Agarda ijtimoyilashuv jarayoni tartibsiz ravishda yuzaga kelsa, bolaning yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. Bundan ko‘rinib turibdiki, bolaning ijtimoiylashuvi tarbiyachi-pedagoglarning nazorati ostida

bo‘lishi zarur. Bolalarni shaxs sifatida shakllantirish maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun tarbiya jarayoni bola hayotiga, individual xususiyatiga muvofiq holda tashkil etilishi taqozo etiladi.


L.R.Mo‘minova tomonidan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish jarayonida korreksion tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga oid bilimlarni egallashga, maxsus ta’lim jarayonida ijodiy izlanuvchanlik bilan yondashish, mulohazalar zanjirini mantiqiy qura olish, qiziqarli materialni tanlash, o‘rganilayotgan obyektlarning xossalarini isbotlash bo‘yicha malakalar va ko‘nikmalarni shakllantirishga, o‘z bilim va malakalarini mustaqil to‘ldirib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ijobiy samara berishi ta’kidlangan [3,41].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuvning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu davrda ro‘y beradigan ijtimoiylashuvni shaxsning shakllanishidagi magistral yo‘lga qiyoslash mumkin. Bu jarayonda bola shaxsining kelajakda kim bo‘lishi, qanday fuqaro bo‘lishi, dunyoqarashi, madaniyati ham shakllanib boradi. Bunda turli muloqot shakllarining o‘ziga xos o‘rni bor. Bolalarda shaxslararo muloqotlarning kuchayishi ularning ijtimoiylashuvida muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil hayotga kirishida oila va uni bevosita o‘rab turgan ijtimoiy muhit turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bolalarni ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘p va serqirra bo‘lib, ularning yo‘nalishlari, o‘ziga xos xususiyatlari muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarda, oila va ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Albatta bolalarning ijtimoiylashuvida oiladagi shart-sharoit, urf-odat va an’analar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ota-onalarning farzandlari bilan muloqoti, oilada shaxslararo munosabatlar, qarindosh-urug‘chilikdagi aloqalar ham bevosita bola tarbiyasiga таъсир кўрсатади. Maktabgacha yosh davri bolalarning ijtimoiylashuvidagi eng qulay va muhim davr bo‘lib, bolalar shu davrda muloqotga moyil bo‘ladilar. Bu davrda bolalar shaxsiy hissiyotlarga ega bo‘lib, barcha jarayonlarni amaliy tajribalar asosida tasavvur qiladilar va bajardilar. Bolalarda ixtiyoriy ravishda odob-axloq me’yorlari va shaxsiy harakatlar yuzaga keladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida ijtimoiylashuv jarayonlari ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, mana shu jarayonda bolalar bilim, tajriba va malakalarni o‘zlashtirib oladilar. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda maqsadga yo‘nalgan ijobiy rivojlanish va ma’naviy qadriyatlarni egallash ro‘y beradi. O‘z yo‘lida maktabgacha ta’lim jarayonidagi muhit ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi.

Bolaning atrofidagi odamlar, oila-a’zolari, tengdoshlari, pedagog va kattalar bevosita ularning hayotida asosiy rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’limda yaratilgan muhit ham ijtimoiy holat bilan yaqinlashadi. Mazkur muassasasada faoliyat yuritadigan guruh bola uchun maroqli birinchi “bolalik jamiyati” hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida o‘tkaziladigan syujetli-rolli o‘yinlar orqali ham bolalar olamni anglaydilar va insonlarcha o‘zaro muloqotda bo‘ladilar. O‘yin qahramonlarining obrazlarini tasavvur qiladilar va obrazlarga munosabat bildiradilar. Maktabgacha ta’limdagi muhit bolalarni ijtimoiy jamiyatni bilishi va faol bo‘lishi uchun amaliyot bazasi hisoblanadi. Bolalarni ijtimoiylashuvini uning qiziquvchanligi ta’minlasa, boshqa tomondan psixologik-pedagogik usul va vositalar ham samarali natija beradi.

Bolalarda ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni shakllanishida quyidagilar zarur hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Bolalarda ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning pedagogik aspektlari

Bolalar uchun o‘z guruhlari turli xil ijobiy va salbiy holatlarni boshdan kechiradigan manba hisoblanadi. Guruhda bolalarning o‘zaro harakatlari, turli xil faoliyat turlari (o‘yin, mehnat, muloqot) orqali ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmasi va odob-axloq me’yorlari o‘zlashtiriladi.

Xulosa. Bolaning muvaffaqiyatli ravishda ijtimoiylashuvi ijtimoiy muammolarni mustaqil ravishda yechish ko‘nikmasi va xulq-atvorni rivojlanish darajasi bilan bog‘liq. Bola nafaqat ijtimoiy muhitga moslashishi, balki uning ichida o‘zining faolligi va mustaqil faoliyati bilan ko‘rinishi kerak. Bu esa individuallashuv va ijtimoiylashuv jarayoniga yordam beradi. Katta guruh bolalari jamiyatdagi yangi talablar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtirishga harakat qiladi. Bunday harakatning paydo bo‘lishi bolaning har tomonlama psixik rivojlanishga tayyorlaydi. Maktabgacha yoshning oxirgi davrlarida bolada psixik o‘zgarishlar o‘zining ijtimoiy “MEN” orqali jamiyatda faol bo‘lishni yuzaga keltiradi. Bu esa bolaning maktab ta’limiga tayyorligining dastlabki kurtaklari hisoblanadi. Katta guruh bolalarida olamni anglashga intilish tobora chuqurlashib boradi, tarbiyachi-pedagoglar yordamida uning qonuniyatlarini o‘zlashtirib oladi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ijtimoiy muhit va tarbiya nafaqat bolalarning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi, balki uning individualligini namoyon bo‘lishiga ham yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yildagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Дуброва В.П., Ковалевич А.В. Основы психологии: Хрестоматия: учеб.пособие/.М.: Беларус, 2003-495 с.

4.Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. Toshkent-2008-224 b.

5. Петрова В.Г. Л.В. Занков и дефектология (к девяностолетию со дня рождения) // Дефектология.- 1991.- № 4.- С. 71.

6. Mo‘minova L.R. Yangi O‘zbekiston nigohida – maxsus va inklyuziv ta’limda innovatsion yondashuvlar va strategiyalar // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: 2023 180 b.

7. Выготский Л.С. Принципы воспитания физически дефективных детей. Санкт-Петербург: Лань, 2017. 12 с.